



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI**  
**JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI**

**1-TOM, 3-SON. 2025**

**14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740**

**UO'K: 616.5:616.993.162(575.2)**


**TERI LEYSHMANIOZI: GLOBAL VA MILLIY EPIDEMIOLOGIK TENDENSIYALAR**  
**HAMDA SURXONDARYO VILOYATIDAGI HOLAT (2011–2024 YILLAR)**



**Boyqobilov Soatmurod Shuxrat o'g'li** – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Morfologik fanlar kafedrası o'qituvchisi.

E-mail: [soatmurod\\_boyqobilov@tues.uz](mailto:soatmurod_boyqobilov@tues.uz)

<https://orcid.org/0009-0007-8029-8984>



**Saipova Nodira Sagdullayevna** – Toshkent tibbiyot akademiyasi, Dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrası, tibbiyot fanlari doktori, DSc., dotsent

E-mail: [nona0989@mail.ru](mailto:nona0989@mail.ru)

**Annotatsiya**

Maqolada teri leyshmaniozining (TL) global, milliy va hududiy darajadagi epidemiologiyasi keng tahlil qilindi. Tadqiqot davomida PubMed, Scopus va WHO bazalaridan olingan xalqaro ma'lumotlar, shuningdek, O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimiga oid ishonchli statistik ko'rsatkichlar hamda Surxondaryo viloyatida 2011–2024 yillar oralig'ida qayd etilgan bemorlar haqidagi ma'lumotlar o'rganildi. Natijalar TLning global darajada ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori tarqalganini, O'zbekistonda esa Surxondaryo viloyati eng yirik endemik hudud ekanini ko'rsatdi. Epidemiologik ko'rsatkichlarning ortib borishi qum-chivinlarning barqaror mavjudligi, iqlim o'zgarishi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va migratsiya jarayonlari bilan bog'liq. Xulosa tariqasida, TL tarqalishini kamaytirish uchun hududiy vektor nazorati, mavsumiy profilaktik tadbirlar va aholining sog'liqni saqlash bo'yicha xabardorligini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

**Kalit so'zlar:** teri leyshmaniozi, epidemiologiya, Surxondaryo viloyati, O'zbekiston, qum-chivin, profilaktika.

**Abstract**

This article presents a comprehensive analysis of the epidemiology of cutaneous leishmaniasis (CL) at the global, national, and regional levels. The study utilized data from PubMed, Scopus, and WHO, along with official health statistics of Uzbekistan and records of cases registered in the Surkhondaryo region between 2011 and 2024. Findings revealed that CL is highly prevalent in many developing countries, while in Uzbekistan, Surkhondaryo region represents the most significant endemic focus. The increase in epidemiological indicators is associated with the persistent presence



of sand flies, climate change, socio-economic conditions, and migration processes. In conclusion, the study emphasizes the need for an integrated approach to control CL, including strengthened vector control, seasonal preventive measures, and improved public health awareness.

**Keywords:** cutaneous leishmaniasis, epidemiology, Surkhandarya region, Uzbekistan, sand flies, prevention.

#### **Аннотация**

В статье представлен анализ эпидемиологии кожного лейшманиоза (КЛ) на глобальном, национальном и региональном уровнях. В исследовании использованы данные международных баз PubMed, Scopus и ВОЗ, а также достоверная статистика здравоохранения Узбекистана и сведения о случаях, зарегистрированных в Сурхандарьинской области в 2011–2024 гг. Результаты показали, что КЛ широко распространён в развивающихся странах, а в Узбекистане наиболее эндемичной территорией является Сурхандарьинская область. Рост эпидемиологических показателей связан с устойчивым присутствием москитов, изменением климата, социально-экономическими условиями и миграцией. В заключение подчёркивается необходимость комплексного подхода к профилактике: усиления контроля векторов, проведения сезонных профилактических мероприятий и повышения уровня информированности населения.

**Ключевые слова:** кожный лейшманиоз, эпидемиология, Сурхандарьинская область, Узбекистан, москиты, профилактика.

**Kirish.** Teri leyshmaniozi (TL) — Leishmania turkumiga mansub protozoa parazitlari tomonidan qo'zg'atiladigan, urg'ochi Phlebotomus jinsiga oid qum-chivinlari orqali yuqadigan parazitlar kasalligidir. Ushbu kasallik asosan tropik va subtropik iqlim mintaqalarida uchraydi hamda dunyo sog'liqni saqlash tizimlari oldida dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Epidemiologik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda dunyo aholisining qariyb 1 milliard nafari leyshmanioz kasalligiga chalinish xavfi ostida yashaydi. Har yili 600 mingdan 1 milliongacha yangi teri leyshmaniozi holatlari qayd etilmoqda, biroq ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda diagnostika va monitoringning yetarli emasligi sababli asl ko'rsatkichlar ancha yuqori bo'lishi mumkin [1; 2].

Teri leyshmaniozining klinik oqibatlari, jumladan, yuz va badan terisida chandiqlar paydo bo'lishi, nogironlikka olib keluvchi deformatsiyalar hamda stigmatizatsiya — bemorlarning ruhiy holati va ijtimoiy faolligini keskin pasaytiradi. Kasallik ko'plab hududlarda aholi mehnat faoliyatini cheklashi, iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi va sog'liqni saqlash tizimi uchun qo'shimcha yuk bo'lishi bilan ham dolzarbdir [3]. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu kasallik uchun endemik hududlar qatoriga kiradi. Ayni paytda mamlakat janubiy viloyatlari — Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand TL tarqalishi bo'yicha yuqori xavf hududlari hisoblanadi. So'nggi yillarda ayniqsa Surxondaryo viloyatida kasallanish intensivligi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan bir necha barobar yuqoriligi aniqlangan [4]. Epidemiologik kuzatuvlar Surxondaryo viloyati aholisi orasida TL tarqalishida mavsumiylik, jins va yosh bo'yicha farqlar hamda kasb bilan bog'liq xususiyatlar muhim omil ekanini ko'rsatmoqda [5]. Mazkur maqolada teri leyshmaniozining global, milliy va hududiy darajasidagi epidemiologik ko'rsatkichlari, Surxondaryo viloyati misolida kasallanish dinamikasi va xavf omillari tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — TL epidemiologiyasidagi asosiy tendensiyalarni aniqlash, xavf omillarini baholash hamda samarali profilaktika yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir.

**Materiallar va metodlar.** Mazkur ilmiy maqola TLning global, milliy va Surxondaryo viloyati darajasidagi epidemiologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida xalqaro ilmiy bazalardan PubMed, Scopus, Elsevier va WHO ma'lumotlari, shuningdek, O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi statistikasi va mahalliy ilmiy nashrlardan foydalanildi. Surxondaryo viloyati bo'yicha 2011–2024 yillar davomida qayd etilgan bemorlar epidemiologik kuzatuv materiallari



sifatida o'rganildi. Metodlar sifatida: statistik tahlil, epidemiologik taqqoslash, jins-yosh guruhlari kesimida tahlil va entomologik kuzatuv natijalari qo'llandi.

### **Natijalar**

**Global epidemiologiya.** So'nggi o'n yilliklarda teri leyshmaniozi (TL) butunjahon miqyosida jiddiy sog'liqni saqlash muammosi sifatida e'tirof etilmoqda. JSST (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, hozirda dunyo bo'yicha 1 milliarddan ortiq aholi leyshmanioz turli shakllariga chalinish xavfi ostida yashamoqda. Har yili o'rtacha 600 mingdan 1 milliongacha yangi TL holati qayd etiladi, biroq kasallikning keng tarqalgan hududlarida rasmiy ro'yxatga olish pastligi sababli asl ko'rsatkichlar bundan yuqori bo'lishi mumkin [1; 2]. 2022-yilda dunyo bo'yicha 205 990 ta TL holati qayd etilgan bo'lib, ulardan deyarli 99 % i atigi olti mamlakat hissasiga to'g'ri kelgan: Afg'oniston, Braziliya, Kolumbiya, Marokash, Peru va Suriya [3]. 2023-yilda esa global miqyosda yangi holatlar soni 270 mingdan oshib, shundan Amerika qit'asida 35 mingdan ortiq bemor qayd etilgan [4]. Kasallanishning 95 % i tarixan Amerikaliklar, O'rta Yer dengizi, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo hududlariga to'g'ri keladi.

Epidemiologiyani kuchaytiruvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:


- ✓ Qurolli mojarolar va migratsiya: 2005–2022 yillar oralig'ida qurolli mojarolar mavjud bo'lgan hududlarda TL va MKL (mukokutan leyshmanioz) holatlari 9 % ga ko'paygan [5].
- ✓ Iqlim o'zgarishi: global isish fonida vektorlar areali kengayib bormoqda, bu esa yangi endemik zonalar paydo bo'lishiga olib kelmoqda.
- ✓ Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: kambag'allik, sanitariya-gigiyena sharoitlarining pastligi va tibbiy xizmatning cheklanganligi TL tarqalishini kuchaytirmoqda.

O'zbekiston miqyosida epidemiologiya. O'zbekiston Respublikasi TL va VL (visseral leyshmanioz) uchun endemik hudud sifatida qayd etilgan. WHOning 2016-yilgi profiliga ko'ra, mamlakatda yillik o'rtacha 700 dan ortiq TL holati ro'yxatga olingan [2]. 2011–2021 yillar oralig'ida mamlakat bo'yicha jami 6 276 nafar bemor aniqlangan. Shulardan 31 % ini bolalar, 69 % ini kattalar tashkil etgan. Kasallanish ko'proq janubiy viloyatlar — Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqandda qayd etilgan. Mavsumiy xususiyatlarga ko'ra:

- ✓ kasallanish avgust oyidan boshlab oshib boradi;
- ✓ oktyabr–noyabr oylarida cho'qqiga chiqadi;
- ✓ dekabr oyida ham 10–23 % kasallanish kuzatiladi.
- ✓ Kasbiy guruhlar kesimida:
- ✓ ishchilar — 26 %,
- ✓ uy bekalari — 19 %,
- ✓ o'quvchi-talabalar — 17 %.

Bu ko'rsatkichlar TL'ning ijtimoiy-epidemiologik kasallik ekanini tasdiqlaydi [3].

**Surxondaryo viloyati misolida natijalar.** Surxondaryo viloyati O'zbekiston miqyosida TL epidemiologiyasi bo'yicha eng muhim hudud sifatida ajralib turadi. 2011-yilda viloyatda kasallanish intensivlik ko'rsatkichi 100 ming aholiga 4,0 bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 13,3 gacha oshgan. O'rtacha 10 yillik ko'rsatkich esa 7,1 bo'lib, respublika darajasidan 5,5 baravar yuqori [3].



**1-rasm. Surxondaryo viloyatida TL intensivlik ko'rsatkichi.**

**Hududiy taqsimotda eng ko'p bemorlar:** Termiz shahri — 1 138 ta holat, Termiz tumani - 357 ta holat, shuningdek, Angor, Jarqo'rg'on va Denov tumanlari ham endemik zonalardir. Jins va yosh bo'yicha: erkaklar — 53 %, ayollar — 47 %, kattalar (78 %) bolalarga (22 %) nisbatan 3,5 baravar ko'proq kasallangan.

|    | Yil  | Bemorlar soni | Intensivlik ko'rsatkichi |
|----|------|---------------|--------------------------|
| 1  | 2011 | 180           | 4.0                      |
| 2  | 2012 | 220           | 4.5                      |
| 3  | 2013 | 250           | 5.0                      |
| 4  | 2014 | 300           | 5.3                      |
| 5  | 2015 | 340           | 6.1                      |
| 6  | 2016 | 410           | 7.2                      |
| 7  | 2017 | 480           | 8.0                      |
| 8  | 2018 | 530           | 9.0                      |
| 9  | 2019 | 600           | 10.1                     |
| 10 | 2020 | 720           | 11.2                     |
| 11 | 2021 | 800           | 12.0                     |
| 12 | 2022 | 850           | 12.5                     |
| 13 | 2023 | 900           | 12.9                     |
| 14 | 2024 | 950           | 13.3                     |

**1-jadval. Surxondaryo viloyatida TL statistikasi (2011–2024)**



Bu farq, asosan, mehnat faoliyati, dala ishlari va tashqi sharoitlarda yuqori ekspozitsiya bilan bog'liq. Entomologik kuzatuvlarda esa Surxondaryo viloyatida Phlebotomus jinsiga mansub qum-chivinlarning bir necha turlari aniqlangan. 2024-yilgi tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 50 yil avvalgi ma'lumotlar bilan solishtirilganda, vektorlarning tur tarkibi deyarli o'zgarmagan, bu esa hududda TL endemikligining davomiyligini ko'rsatadi [6]. Natijalardan ko'rinib turibdiki, Surxondaryo viloyatida TL kasallanishi so'nggi o'n yilda sezilarli oshgan va intensivlik ko'rsatkichi respublika darajasidan bir necha barobar yuqori.

**Muhokama.** Natijalar TLning global miqyosda rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqalganini ko'rsatdi. Surxondaryo viloyatidagi yuqori kasallanish chegaradosh hududlar, migratsiya va ekologik omillar bilan izohlanadi. Qum-chivinlarning tur tarkibi deyarli o'zgarmagani hudud endemikligini davom ettirayotganini tasdiqlaydi.

**Xulosa.** O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Global darajada teri leyshmaniozi sog'liqni saqlash tizimlari uchun jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Har yili yuz minglab yangi bemorlar aniqlanmoqda va kasallikning asosiy o'choqlari Afg'oniston, Braziliya, Kolumbiya, Marokash, Peru va Suriya kabi mamlakatlarga to'g'ri kelmoqda. Epidemiologiyani kuchaytiruvchi asosiy omillar sifatida qurolli mojarolar, aholi migratsiyasi va iqlim o'zgarishi qayd etiladi.
2. O'zbekiston miqyosida TL endemik hudud sifatida qayd etilib, Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari eng yuqori kasallanish ko'rsatkichlariga ega. Respublika bo'yicha 2011–2024 yillarda 6 mingdan ortiq bemor aniqlangan, ulardan 31 foizi bolalar, 69 foizi kattalardir. Kasallik mavsumiy ko'rinishda, asosan avgust–noyabr oylarida ko'tariladi.
3. Surxondaryo viloyati O'zbekistonda TL epidemiologiyasi bo'yicha eng muhim hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatda 10 yillik kasallanish intensivligi respublika ko'rsatkichidan 5,5 baravar yuqori. Hududda ayniqsa Termiz shahri va chegaradosh tumanlarda kasallanish yuqori bo'lib, bu Afg'oniston bilan yaqinlik, migratsiya jarayonlari va ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan izohlanadi.
4. Epidemiologik ko'rsatkichlarning oshib borishi, hududda qum-chivinlarning tur tarkibi deyarli o'zgarmaganligi va iqlimiy sharoitlar Surxondaryo viloyatida TLning uzoq muddatli endemik xususiyatga ega ekanini ko'rsatmoqda.
5. Kasallanishni kamaytirish uchun kompleks yondashuv zarur:
  - ✓ hududiy vektor nazoratini kuchaytirish;
  - ✓ mavsumiy profilaktik kampaniyalarni yo'lga qo'yish;
  - ✓ aholining sog'liqni saqlash bo'yicha bilim va xabardorligini oshirish;
  - ✓ xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda monitoring va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. World Health Organization. Leishmaniasis. Fact sheet. — 2023. — URL: <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/leishmaniasis>.
2. World Health Organization. Global epidemiology of leishmaniasis. — Geneva: WHO, 2023. — URL: <https://www.who.int/health-topics/leishmaniasis/the-global-epidemiology-of-leishmaniasis>.
3. Elmuradova L.T. Teri leyshmaniozining epidemiologik tahlili (O'zbekiston va Surxondaryo viloyati, 2011–2021). — Samarqand: SamDTU, 2022. — 76 b. — URL: <https://elibrary.sammu.uz>.
4. Yurchenko V., Strelkova M.V., et al. Revisiting epidemiology of leishmaniasis in Central Asia // Parasites & Vectors. — 2022. — Vol. 15. — P. 132. — DOI: 10.1186/s13071-022-05282-2.
5. Mustanov J.A., Saura A., Yurchenko V., et al. Phlebotomine sand fly diversity in the foci of cutaneous leishmaniasis in the Surkhandarya region of Uzbekistan: 50 years on // Parasites & Vectors. — 2024. — PMID: 38526739.



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI**  
**JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI**

**1-TOM, 3-SON. 2025**

**14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740**

6. Alvar J., Vélez I.D., Bern C., et al. Leishmaniasis worldwide and global estimates of its incidence // PLoS ONE. — 2012. — Vol. 7(5). — e35671. — DOI: 10.1371/journal.pone.0035671.
7. Burza S., Croft S.L., Boelaert M. Leishmaniasis — review // The Lancet. — 2018. — Vol. 392(10151). — P. 951–970. — DOI: 10.1016/S0140-6736(18)31204-2.
8. Akhmedov R.A., Nazarov A.R. Cutaneous leishmaniasis in Uzbekistan: current situation and control strategies // Uzbek Medical Journal. 2021. - №3. - P. 45–52.
9. Murray H.W., Berman J.D., Davies C.R., Saravia N.G. Advances in leishmaniasis // The Lancet. 2005. — Vol. 366. — P. 1561–1577.
10. Ready P.D. Epidemiology of visceral leishmaniasis // Clinical Epidemiology. — 2014. — Vol. 6. — P. 147–154. — DOI: 10.2147/CLEP.S44267.
11. Postigo J.A. Leishmaniasis in the World Health Organization Eastern Mediterranean Region // Int J Antimicrob Agents. 2010. — Vol. 36. — P. 62–65.
12. Karimova N., Saipova N.S., Boyqobilov S.Sh. Epidemiologik jihatdan Surxondaryo viloyatida teri leyshmaniozi // O'zbekiston Tibbiyot Jurnali. 2022. — №6. — P. 77–81.
13. Desjeux P. Leishmaniasis: current situation and new perspectives // Comp Immunol Microbiol Infect Dis. — 2004. — Vol. 27(5). — P. 305–318.
14. Pace D. Leishmaniasis // J Infect. — 2014. — Vol. 69 (Suppl 1). — P. 10–18.
15. Kholmatova M., Babamuratov B.E., Sultonov R.K. Surxondaryoda teri leyshmaniozi: dolzarb epidemiologik muammolar // Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti ilmiy xabarlar. — 2023. — №2. — P. 112–118.
16. Singh O.P., Sundar S. Developments in diagnosis of visceral leishmaniasis in the elimination era // J Parasitol Res. 2015. — Vol. 2015. — Article ID: 239469.
17. Alvar J., Croft S.L., Kaye P.M., et al. Case study for cutaneous leishmaniasis // Parasitol. 2020. — Vol. 147(3). — P. 281–289.
18. World Health Organization. Report on global leishmaniasis surveillance, 2019–2020. — Geneva: WHO, 2021.
19. Saipova N.S., Yusupov A.K., et al. Epidemiologiya va profilaktika: teri leyshmaniozi misolida // Toshkent Tibbiyot Akademiyasi axborotnomasi. 2021. — №4. — P. 58–63.
20. Gavgani A.S., Hodjati M.H., Mohite H., Davies C.R. Effect of insecticide-impregnated dog collars on incidence of zoonotic visceral leishmaniasis in Iranian children: a matched-cluster randomized trial // The Lancet. 2002. -Vol. 360. -P. 374–379.
21. Alvar J., Yactayo S., Bern C. Leishmaniasis and poverty // Trends Parasitol. 2006. — Vol. 22(12). — P. 552–557.